


Xizmatlar sohasining rivojlanishi – amalga oshirilayotgan islohotlarning ko'zgusidir

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2020-yil yanvar oyida bozor xizmatlari hajmi 480,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan 108,6 % ga o'sdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi: transport xizmatlari (25,9 %), savdo xizmatlari (22,2 %), moliyaviy xizmatlar (20,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,4 %) hissasiga to'g'ri keldi.


2020-yil yanvar oyida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, % da



Ma'lumot uchun: 2019-yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 398,5 mlrd. so'mga teng bo'lган.

2020-yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2019-yil yanvar oyiga nisbatan 81,7 mlrd. so'mga oshdi.

Ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Joriy yilning 2019-yil yanvar oyiga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlari (17,0 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (12,8 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (28,8 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (3,9 mlrd. so'mga) kabi xizmatlari hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2020-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab
chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	480,2	108,6
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	30,5	110,5
moliyaviy xizmatlar	99,4	131,4
transport xizmatlari	124,3	105,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	66,8	103,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	14,3	107,3
savdo xizmatlari	106,5	100,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	15,8	101,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	18,3	117,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	6,0	98,2
ijara xizmatlari	10,5	91,1
kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	14,4	102,6
shaxsiy xizmatlar	18,4	103,7
me'morchilik sohasidagi xizmatlar	8,1	102,6
boshqa xizmatlar	13,7	100,0

**2020-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da**



- | | |
|---|--|
| 1 Xizmatlar - jami
2 Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
3 Moliyaviy xizmatlar
4 Transport xizmatlari
5 Yashash va ovqatlanish xizmatlari
6 Savdo xizmatlari
7 Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlari | 8 Ta'lim sohasidagi xizmatlar
9 Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
10 Ijara xizmatlari
11 Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
12 Shaxsiy xizmatlar
13 Me'morchilik sohasidagi xizmatlar
14 Boshqa xizmatlar |
|---|--|

2020-yil yanvar oyida 2019-yil yanvar oyiga nisbatan moliyaviy xizmatlar (31,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (17,3 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (10,5 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2020-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da**

Transport xizmatlari	25,9 %
Savdo xizmatlari	22,2 %
Moliyaviy xizmatlar	20,7 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,4 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3,8 %
Shaxsiy xizmatlar	3,8 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,3 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,0 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,0 %
Boshqa xizmatlar	2,8 %
Ijara xizmatlari	2,2 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,7 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,2 %

Jami xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (25,9 %), savdo xizmatlari (22,2 %), moliyaviy xizmatlar (20,7 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,4 %) hissasiga to`g`ri keldi.

**2020-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar
ishlab chiqarish hajmi**

	Transport xizmatlari	124,3 mlrd. so'm
	Savdo xizmatlari	106,5 mlrd. so'm
	Moliyaviy xizmatlar	99,4 mlrd. so'm
	Boshqa xizmatlar	38,3 mlrd. so'm
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	30,5 mlrd. so'm
	Shaxsiy xizmatlar	18,4 mlrd. so'm
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	18,3 mlrd. so'm
	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	15,8 mlrd. so'm
	Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	14,4 mlrd. so'm
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	14,3 mlrd. so'm

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (124,3 mlrd. so'm), savdo xizmatlari (106,5 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (99,4 mlrd. so'm) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (30,5 mlrd. so'm) bo'yicha kuzatildi.

Hozirgi vaqtida savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari hudud iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiylajmi hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.


2020-yil yanvar oyida savdo xizmatlari hajmi 106,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiylajmi hajmidagi ulushi 22,2 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 81,1 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 11,7 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosini bo'yicha xizmatlar umumiylajmi savdo xizmatlari hajmida 7,2 % ni egallaydi.

2020-yil yanvar oyida savdo xizmatlari tarkibi, % da



- Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosini bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2020-yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi 99,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, 2019-yil yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati esa 131,4 % ni tashkil etdi.

**2020-yil yanvar oyida moliyaviy
xizmatlarning tarkibi, % da**



**Xizmatlar sohasi statistikasi
bo'limi
71-230-82-15**